



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 904,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (33,1 %), transport xizmatlari (18,2 %), moliyaviy xizmatlar (17,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,1 %) ustunlikka ega.

2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(*dastlabki ma'lumotlar*)

2020-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	3 904,8	101,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	238,9	111,6
Moliyaviy xizmatlar	687,9	130,7
Transport xizmatlari	709,5	97,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	652,2	99,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	72,6	79,4
Savdo xizmatlari	1 292,6	99,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	98,2	87,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	177,3	114,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	71,9	80,2
Ijara xizmatlari	85,4	111,2
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	94,3	90,4
Shaxsiy xizmatlar	225,8	86,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	57,2	59,2
Boshqa xizmatlar	93,2	89,0

2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (130,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (114,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,6 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 433,9 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2020-yil yanvar-may oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 893,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan o'sishiga moliyaviy xizmatlar (196,5 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (135,4 mlrd. so'mga) hamda transport xizmatlar (42,9 mlrd. so'mga) xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2019-yilning mos davrida moliyaviy xizmatlari 220,7 mlrd. so'm, savdo xizmatlari 165,5 mlrd. so'm, transport xizmatlar 79,9 mlrd. so'mga oshgan.



2020-yil
yanvar-iyun


Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (59,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (79,4 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (80,2 %), shaxsiy xizmatlar (86,1 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2020-yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 33,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (18,2 %), moliyaviy xizmatlar (17,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,1 %) egallaydi.

2020-yil
yanvar-iyun


Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (92,1 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 7,6 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.



2020-yil
yanvar-iyun


Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha transport xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm



Transport xizmatlarining hududlar kesimida eng yuqori ulushi Namangan shahriga (159,9 mlrd. so'm), Pop (78,2 mlrd. so'm), Chust (57,9 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (53,7 mlrd. so'm), Uychi (50,6 mlrd. so'm), Namangan t. (49,8 mlrd. so'm) va Yangiqo'rg'on (49,2 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.


Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2020-yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 77,5 % ni tashkil etadi.

2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,0 % ga yetdi.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egallaydi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Namangan shahrida (353,9 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (181,1 mlrd. so'm), Chust (93,9 mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (91,3 mlrd. so'm), Chortoq (90,9 mlrd. so'm), Pop (90,1 mlrd. so'm) va Namangan t. (84,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm



Namangan sh.	353,9 mlrd. so'm
To'raqo'rg'on	118,1 mlrd. so'm
Chust	93,9 mlrd. so'm
Yangiqo'rg'on	91,3 mlrd. so'm
Chortoq	90,9 mlrd. so'm
Pop	90,1 mlrd. so'm
Namangan t.	84,9 mlrd. so'm
Uychi	81,4 mlrd. so'm
Uchqo'rg'on	81,0 mlrd. so'm
Kosonsoy	76,2 mlrd. so'm
Norin	68,5 mlrd. so'm
Mingbuloq	62,4 mlrd. so'm

2020-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (97,5 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 1,8 % ni tashkil qiladi.

2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi 2020-yil yanvar-iyun oyi, %



■ Telekommunikatsiya xizmati

■ Axborot sohasidagi xizmatlar

■ Nashriyotchilik xizmati

■ Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati

■ Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati

2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2020-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2020-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 687,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 130,7 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (90,4 %) tashkil etadi.

2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlarining hajmi va o'sishi

● Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm ○ 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan hajmning o'sishi, %



2020-yilning ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 72,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 79,4 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,9 % ga yetdi.

2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 100 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 84,6 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,4 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	3 904,8	101,2
<i>shahar:</i>		
Namangan	1 857,5	100,9
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	136,8	104,4
Kosonsoy	189,1	100,4
Namangan	181,4	103,5
Norin	145,4	104,8
Pop	224,5	101,2
To'raqo'rg'on	227,7	100,3
Uychi	184,0	101,2
Uchqo'rg'on	169,6	100,3
Chortoq	190,6	101,5
Chust	212,3	100,5
Yangiqo'rg'on	185,9	101,3

2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Hududlar o'rtasida Namangan shahri (1 857,5 mlrd. so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Namangan shahri bo'yicha 100,9 % ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Mingbuloq (136,8 mlrd. so'm), Norin (145,4 mlrd. so'm) va Uchqo'rg'on (169,6 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatildi.



2020-yil
yanvar-iyun


Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2020-yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Norin (104,8 %), Mingbuloq (104,4 %), Namangan t. (103,5 %) va Chortoq (101,5 %) tumanlarida qayd etildi.

2020-yil
yanvar-iyun


Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga hajm, ming so'm

2020-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1 383,3 ming. so'mga teng bo'ldi. 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 127,9 ming. so'mga oshdi.



2020-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga hajmi hududlar kesimida, ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida (2 951,3 ming so'm) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida 98,6 % kuzatildi.


2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)



● 2020-yanvar-iyun aholi jon boshiga (ming so'm)

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28

2020-yil
yanvar-iyun

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi